

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

J.Qodirov	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
M.Hamidjonov, N.Shodilbekov	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
B.Qurbonova	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
D.Xakimova	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
B.Umarov	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
Sh.Ro'zaliyev	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi.....	118
F.Yuldashev	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
A.Rajabov	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
Z.Xamraqulov	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
S.O.Omonova	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki.....	138
A.T.Tuychiyev	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati.....	142
N.E.G'olibjon	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	149
J.B.Hamraqulov	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari.....	154

IQTISODIYOT

M.Adxamov	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
A.A.Oripov	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

FALSAFA

M.Qaxxarova, M.Raximshikova	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi.....	169
A.Sufiyev	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari.....	175
B.G'aniyev	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....	181
S.Yuldashev	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
Sh.Usanov, E.Avazov	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni.....	190
M.Choriyeva	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
K.Saydazimov	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar.....	199
A.Mo'ydinov	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati.....	204

MILLATLARARO MUNOSABATLAR MUSTAHKAMLANISHIDA SURXONDARYO VILOYAT TURKMAN MILLIY-MADANIY MARKAZINING O'RNI**РОЛЬ ТУРКМАНСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО ЦЕНТРА СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УКРЕПЛЕНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ****THE ROLE OF THE TURKMAN NATIONAL CULTURAL CENTER OF SURKHANDARYA REGION IN THE STRENGTHENING OF INTERNATIONAL RELATIONS****Usanov Shuxrat Musurmonovich¹, Avazov Ergash Xidirberdievich²****¹Usanov Shuxrat Musurmonovich**

– Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida assistenti.

²Avazov Ergash Xidirberdievich

– Termiz davlat universiteti “Moliya” kafedrasida dotsenti, Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazi raisi.

Annotatsiya

Berilgan ilmiy tadqiqot ishida maqsad viloyatda mavjud boʻlgan turkman millatiga mansub kishilarga berilayotgan eʼtiborni k oʻrsatib, mamlakatda yashovchi turli millat vakillariga qonunan bir hil shart sharoitlar yaratib berilganligini k oʻrsatib uni t oʻgʻri talqin etishdan iborat. Ushbu tadqiqot ishida ilmiylik, xolislik, manbalarni oʻzaro qiyoslash, aqliy hujum orqali maʼlumotlarga ega boʻlish metodlaridan foydalanildi va masala yuzasidan aniq faktlar asoslangan holda mavzu ochib berildi. Ilmiy izlanish natijasida viloyat hududida yashab kelayotgan turkman millatiga mansub kishilarning millatlararo munosabatlarda ahamiyati, voha rivojida milliy-madaniy markazlarning oʻrni ochib berildi. Ushbu ilmiy izlanish xulosasi shu boʻldiki turkman millatiga mansub boʻlgan kishilar oʻz milliy urf odatlari va qadriyatlarini targʻib qilishda milliy-madaniy markazlarning oʻrni muhim ekanligi k oʻrsatildi. Shuningdek, maqolada turkmanlar millatiga mansub boʻlgan kishilar, turkman milliy markazi faoliyat dasturi, Surxon vohasida turkman millatiga mansub kishilar statistik maʼlumotlar ilmiy jihatdan asoslangan holda ochib berildi.

Аннотация

Целью данной научно-исследовательской работы является показать то внимание, которое уделяется туркменскому народу в регионе, и показать, что для представителей разных национальностей, проживающих в стране, созданы одинаковые условия, и правильно это интерпретировать.

В данной исследовательской работе использовались методы получения информации путем научности, объективности, взаимного сопоставления источников, мозгового штурма, а тема раскрывалась на основе конкретных фактов по проблеме. В результате научных исследований выявлено значение проживающего на территории края туркменского народа в межэтнических отношениях, роль национально-культурных центров в развитии оазиса. Выводом данного научного исследования стало то, что было показано, что роль национально-культурных центров важна в пропаганде своих национальных обычаев и ценностей. Также в статье на научной основе раскрыты лица туркменской национальности, программа деятельности Туркменского национального центра, статистика лиц туркменской национальности в Сурханском оазисе.

Abstract

The purpose of the given scientific research work is to show the attention paid to the Turkmen people in the region, and to show that the same conditions have been created for representatives of different nationalities living in the country, and to interpret it correctly. In this research work, the methods of obtaining information through scientificity, objectivity, mutual comparison of sources, and brainstorming were used, and the topic was revealed based on specific facts about the issue. As a result of scientific research, the importance of Turkmen people living in the territory of the region in inter-ethnic relations, the role of national-cultural centers in the development of the oasis was revealed. The conclusion of this scientific research was that it was shown that the role of national-cultural centers is important in promoting their national customs and values. Also, in the article, people of Turkmen nationality, the activity program of the Turkmen National Center, statistics of people of Turkmen nationality in the Surkhan oasis were revealed on a scientific basis.

Kalit soʻzlar: turkmanlar, milliy markazlar, millatlararo munosabatlar, harakatlar strategiyasi, bagʻrikenglik, turkmanlar statistikasi.

Ключевые слова: туркмены, национальные центры, межэтнические отношения, стратегия действий, толерантность, статистика туркмен.

Key words: Turkmens, national centers, interethnic relations, action strategy, tolerance, statistics of Turkmens.

KIRISH

Ilmiy izlanish davomida viloyatda mavjud boʻlgan turkman millatiga mansub kishilar mamlakat taraqqiyoti yoʻlida amalga oshirayotgan ishlar, ularning voha rivojlanishida tutgan oʻrni,

FALSAFA

milliy-madaniy markazlarga berilgan e'tibor, qolaversa 2016-yil oxiri va 2017-yildan keyingi davrda juda katta imkoniyatlar yaratib berilayotganligi ko'rsatib berildi. Milliy markazlar faoliyatida qonun hujjatlarining ahamiyati, markazlarga berilayotgan turli imtiyozlar, milliy va etnik munosabatlar rivojida mamlakat siyosatining o'rni ko'rstib berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy tadqiqotni o'rganishda asosan mamlakatda hukumat qarorlari, mamlakatning asosiy qonun hujjati bo'lgan konstitutsiya, viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari, millatlararo munosabat sohasiga tegishli bo'lgan internet saytlaridan olingan manbalar asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotni o'rganishda ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash, chiqarilayotgan farmon va qarorlarni tahlil etishdan kelib chiqqan xulosalar, ma'lumotlarga xolislik bilan yondashuv orqali tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-may kuni PF-5046-sonli "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kunlaridan boshlab millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratila boshlaganligini ko'ramiz. Bugungi kunda respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda[2].

O'zbekistonda hududida yashovchi barcha fuqarolar millatidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi belgilangan buni qonun hujjatlarida ham xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart"[1].

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoni berildi[2].

Ushbu milliy madaniy markazning faol a'zolari turli darajadagi mukofotlarga erishishi zaminida juda katta ma'no-mazmun kasb etadi, mamlakatda mavjud bo'lgan milliy markazlar davlat himoyasida ekanligi, uning a'zolarining mamlakatdagi turli millat vakillari o'rtasidagi do'stlik rishtalarining yanada mustahkamlanishidagi xizmatlari e'tiborsiz qoldirilmasligini anglatadi.

O'zbekistonda turli millatga mansub fuqarolar orasida turkman millatiga mansub bo'lgan fuqarolar ham yashab kelmoqda. O'zbekistonda 189 mingdan ortiq turkmanlar o'z milliy madaniyatlari, tili, an'analari va urf-odatlarini asrash hamda rivojlantirish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini 2001-yil 7-may kuni tashkil qilingan Respublika Turkman madaniy markazi orqali amalga oshiradi. Bugungi kunga kelib markazning tarkibiy tuzilmasi hisoblangan Qoraqalpog'iston

Respublikasi Turkman madaniy markazi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Toshkent viloyati, Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalari faoliyat yuritib kelmoqda[3].

O'zbekistonda xususan Surxon vohasi hududlarida millatlararo munosabatlar jarayonlarida hamda bag'rikenglik masalalarining rivoj topishida turkman milliy madaniy markazi muhim ahamiyatga egadir. Surxondaryo Turkman milliy madaniyati markazi O'zbekistondagi eng birinchi tuzilib shakllangan milliy markazlardan biri hisoblanadi, markaz 1992-yil 30-mart kuni butun Dunyo turkmanlarining (Ashxabat shahrida bo'lib o'tgan) gumanitar birlashmasining direktori(o'sha paytdagi direktori S.Niyazov)ning "Dunyo Turkmanlarining gumanitar birlashmasining a'zoliciga qabul qilish tartibi, a'zolarining huquqlari va burchlari haqida"gi qarori asosida dunyoning qator davlatlarida jumladan:

Germaniyaning Berlin shahridagi "Turkman do'stlik" jamiyati, Germaniyaning Gamburg shahri bo'limi, Rossiyaning Stavropol o'lkasidagi "Vatan" jamiyati, Astraxan turkmanlarining "Vatan" jamiyati, Moskvaning "Turkmaniston" jamiyati, Saratov viloyatidagi Turkman markazi, Angliyadagi "Mahtumqulining do'stlari" jamiyati, AQSHdagi turkmanlarning "Turkmaniston" jamiyati, O'zbekistonning Buxoro shahridagi turkmanlarning madaniy markazi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat turkman milliy markazi b o'limlari tashkil etilgan[7].

Keltirilgan ushbu ma'lumotdan shuni anglash mumkinki dunyo bo'yicha turkmanlar o'z birlashmasiga ega hisoblanib turli davlatlarda ham turkman millatiga mansub bo'lgan kishilar manfaatlarini, milliy qadriyatlarini targ'ib qilish, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlash uchun harakat qilib kelmoqda. Surxondaryo Turkman milliy madaniyati markazi 2001-yil 4-mayda qayta ro'yxatga olinib o'zining bank rekvizitlariga, Adliya boshqarmasidan nodavlat notijorat tashkilot ekanligi to'g'risidagi guvohnoma va o'zining nizomiga ega bo'lib, davlat soliq inspeksiyasidan (18.02.2003 yil INN: 204012284) ro'yxatdan o'tgan.

Turkman milliy madaniyati markazini tuzishda va faoliyat yuritishda quyidagi markaz a'zolari faol ishtirokchilardan quyidagi kishilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin jumladan: Allakov Ismoil (Matematika fanlari bo'yicha professor), Qurbondurdi Jumaev (b.f.n., dotsent), Avliyoqul Xalilov (jurnalist), Baxtiyor Qurbonov (jamo'a xo'jaligi raisi), Geldimurod Saidmalikov (Termiz oqshomi gazetasi muxbiri), Sayfullo Davlatov (xizmat ko'rsatgan jarroh), Qosimova Jamila (Mahalla fuqarolar yig'ini raisi) lardir. Ayniqsa faollik va fidoyilik ko'rsatib kelayotgan Axmedov Qo'chqor Xasanovich (1994-yildan 2018 yilgacha – Surxondaryo turkman milliy-madaniy markazi raisi), Avazov Ergash Xidirberdievich (Termiz davlat universitetining dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, 1994-yildan STMMM kengashi raisi muovini, 2018-yil 10-noyabrdan milliy markazning kengashi raisi), Dosmatov Sherif (pensioner, STMMM muovini), Salakov Baxtiyor (o'qituvchi, STMMM muovini), Xudaykulov Amir (STMMM bosh hisobchisi), faol a'zolari — Ro'zieva Selviniyaz, Maxmudov Maxtumquli, Jumartov O'damurod, Musaev Botir, Djumaev Xudoyberdi, Maxmudov Jabbor, Annageldiev Ro'ziqul, Avazov Qambar, Xudoyberdiyev Firdavs, Elmurodov Boymurod Turaevichlardan iborat. Markazning a'zolari markaz nizomi asosida xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik, milliy madaniyat va an'analarni saqlash va ularni o'zaro boyitish, rivojlantirish va mustahkamlash ishlarini yuritib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib Surxondaryo viloyatida turli tumanlarga e'tibor qaratsak turkman millatiga mansub fuqarolar istiqomat qilib kelmoqda, Viloyat miqyosida 32925 nafarni tashkil etadi uning tumanlar kesimida joylashishi esa quyidagicha:

Termiz shahrida 9708 nafar, Oltinsoy tumanida 154 nafar, Angor tumanida 5289 nafar, Bandixon tumanida 56 nafar, Boysun tumanida 82 nafar, Muzrabod tumanida 2693 nafar, Denov tumanida 431 nafar, Jarqurg'on tumanida 570 nafar, Qumqurg'on tumanida 437 nafar, Qiziriq tumanida 81 nafar, Sariosiyo tumanida 487 nafar, Termiz tumanida 9837 nafar, Uzun tumanida 259 nafar, Sherobod tumanida 1628 nafar, Sho'rchi tumanida 1213 nafar turkman millatiga mansub fuqarolar yashamoqda[4].

Yo'qoridagi statistikadan ham ko'rinib turibdiki Surxondaryo viloyatida turkman millatiga mansub kishilarning keng hududlarda joylashib o'zbek millatiga mansub kishilar bilan hamjihatlikda mamlakat taraqqiyoti yo'lida "vatan yagona" shiori ostida yashab kelayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatda turkman millatiga mansub kishilar asosan yashovchi hududlar bular, Termiz shahrining "Jo'yijangal", "Pattakesar" qishloqlarida va Termiz tumanining "Orol", "Xalqobod" va boshqa mahallalarida, Muzrobdod tumanining "Xushmon", "Boldir", Angor tumanining "Navbahor" qishloqlari hisoblanadi.

FALSAFA

Turkman milliy madaniy markazi doimiy ravishda “O‘zbekiston umumiy uyimiz” deb nomlangan do‘stlik festivali, urf-odatlar, milliy qadriyatlar tiklangan bayrami deb nomlangan “Navro‘z”, “Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan” shiori ostida mustaqilligimizga bag‘ishlangan tantanalar va boshqa tadbirlar o‘tkazib kelmoqda.

Milliy markaz o‘z faoliyatida yoshlarni vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy qadriyatlarimizga yuksak ehtirom mehnatsevarlik, ma’naviyat mavzularida turli tadbirlar o‘tkazib, ular orqali yoshlarda Vatanga mehr-muhabbat, Konstitutsiya va qonunlarimizga sadoqat ruhini shakllantirish orqali buyuk kelajak sari olib borilayotgan ulkan ishlarda faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xususan, Surxondaryo viloyati Turkman milliy madaniyati markazi faoliyatida tub burilish 2016-yil yakuni, 2017-yil boshidan boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (PF-4947.2017-yil 7-fevral) qabul qilinishi va amalga oshirilishi juda muhim voqelik bo‘ldi. Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi:

- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar deb nomlangan bo‘lib uning:

1-yo‘nalishi **Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:** unda:

- O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

- axborot xavfsizligini ta‘minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish;

- fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;

- favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

2-yo‘nalishi **Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar:** unda:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

- O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish[5].

Ushbu harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi albatta Surxondaryo turkman milliy madaniy markazi faoliyatiga ham ijobiy ta‘sir qilib markaz o‘z faoliyatida yanada faol bo‘lishga, viloyatdagi turkman millatiga mansub kishilar urf odatlari, an‘analarini yanada mustahkamlashga, qolaversa o‘zbek turkman rishtalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilib kelmoqda.

Millatlararo munosabatlar masalasiga e‘tibor bugungi kunda katta siyosiy masalaga aylanganligini O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan keng jamoatchilik muhokamasi natijasida 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli farmoni ya‘ni “Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o‘rinlarda — Taraqqiyot strategiyasi) va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda- Davlat dasturi) tasdiqlanishida ham ko‘rish mumkin.

Ushbu dasturda ko‘zda tutilgan;

- ***ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish*** deb nomlangan *beshinch* yo'nalishining 74- maqsadi, **jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash** deb belgilandi unda quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.

- Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash.

- Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.

- Xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.

- Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish[6].

Ushbu dasturdan ham anglash mumkinki mamlakatimiz o'z taraqqiyoti yo'lida millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik tolerantlik masalasiga bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida ham juda katta ahamiyat beradi.

O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyot yo'lida mamlakatda Nodavlat Notijorat tashkilotlarga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Mamlakatda bir qancha hukumatning NNT lar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash uchun joriy etgan grantlari va loyihalari mavjud bo'lib, bu tanlovlarda Surxondaryo viloyati Turkman milliy madaniyati markazi ham faol ishtirok etib kelmoqda. Milliy madaniy markaz tomonidan bir qancha grantlar tanlovlarda yutib olingan masalan qiymati jami 24,0 million so'mlik 47-05/51-sonli davlat grantiga sazovor bo'lgan, Surxondaryo viloyati Kasaba uyushmalari kengashi binosida "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan millatlararo totuvlikni ta'minlash va bag'rikenglik tamoyillari asosida turkmanlar tarixi va madaniy merosi, urf-odatlarini, qadriyatlarini Surxondaryo viloyati "Turkman milliy madaniyati markazi" orqali keng targ'ib qilish yo'li bilan yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhitining samaradorligini oshirish" nomli grant mavzusida olingan mablag'lar hisobiga videokamera va uning sumkasini, "Notebook" va uning sumkasini, kitob muqovalash dastgohi, faoliyat uchun zarur bo'lgan kantselyariya mollari xarid qilindi. 47-05/51-raqamli grant asosida 4 marotaba televideniye va 3 marta radio orqali turkman xalqining urf-odatlarini, turli xil taomlari, ularni pishirish texnologiyasi, qizlar va kelin liboslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, yosh qizlarga qolin gilam to'qish sirlari o'rgatilib Surxondaryo, qo'shni Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston Islom Respublikasi viloyatlariga ham e'fir orqali yetkazildi.

XULOSA

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, o'zaro manfaatli amaliy ishlar sohasiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Turli millatga mansub kishilar manfaatlarini himoya qilish, ularning orzu istaklarini himoya qilish maqsadida turli birlashmalar jumladan milliy madaniy markazlar tashkil etildi. Surxondaryo viloyati turkman milliy madaniy markazi bugungi kunda samarali faoliyat yuritib turli tadbir va kechalarda turkman va o'zbek millatiga mansub kishilarning hamjihatligida faol ishtirok etib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 18-modda. 1992-yil 8-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5046. 2017-yil 19-may.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari q o'mitasi rasmiy sayti. interkomitet.uz.
4. Surxondaryo viloyat statistika q o'mitasi ma'lumotlar bazasi manbasidan. surxon.stat.@exat.uz.
5. 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. PF-4947: 2017-yil 7-fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadriini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi. 2022-yil 28-yanvar PF-60-son farmoni.
7. "Dunyo Turkmanlarining gumanitar birlashmasining a'zozligiga qabul qilish tartibi, a'zolarning huquqlari va burchlari haqida"gi qarori. 1992-yil 30-mart.